



**Korrupsiyaning siyosiy taraqqiyotga bo'lgan negativ
ta'siri va unga qarshi kurashning huquqiy asoslari**

MAXMARASULOV NAJMIDDIN

ZARIPOV ABDULAZIZ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

HUZURIDAGI BOJXONA QO'MITASI

BOJXONA INSTITUTI 224-GURUH KURSANTLARI

DILSHOD YULDASHEVICH SATTOROV

ILMIY RAHBAR: BOJXONA INSTITUTI DOTSENTI

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarini buzar ekan, uning taraqqiyotga bo'lgan salbiy ta'siri ayniqsa kuchayadi. Ushbu mavzu doirasida, korrupsiyaning taraqqiyotga bo'lgan negativ ta'siri va uning bartaraf etilishining ahamiyati ko'rsatiladi.

Kirish so'zlar: Korrupsiya, oq iqtisodiyot, aylanuvchi eshiklar, olmasligimiz, bermasligimiz.

Abstract: This article examines how corruption negatively impacts the social, political, and economic systems of society, particularly undermining development. The topic highlights the detrimental effects of corruption on progress and the importance of addressing it. The article analyzes the impact of corruption on the governance system, economic stability, and social justice, emphasizing the need for legal frameworks and



international cooperation to combat it. Moreover, the article underscores the significance of creating effective mechanisms to prevent and eliminate corruption while promoting ethical and legal norms in society.

Introductory words: Corruption, white economy, revolving doors, we should not take, we should not give.

Аннотация: В данной статье рассматривается, как коррупция отрицательно влияет на социальные, политические и экономические системы общества, особенно усиливая её негативное воздействие на развитие. В рамках данной темы подчеркиваются пагубные последствия коррупции для прогресса и важность её устранения. Статья анализирует влияние коррупции на систему управления, экономическую стабильность и социальную справедливость, акцентируя внимание на необходимости разработки правовых основ и международного сотрудничества для борьбы с коррупцией. Также подчеркивается важность создания эффективных механизмов для предотвращения и устранения коррупции, а также укрепления этических и правовых норм в обществе.

Вводные слова: Коррупция, белая економия, вращающиеся двери, мы не должны принимать, мы не должны давать.

Korrupsiya (Corruption) – Bu davlat va jamiyatni rivojlantirishga jiddiy to'siq bo'ladigan, qonunlarga zid, noyob manfaatlar uchun amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyatdir



“Oq iqtisodiyot” (White economy) — Bu rasmiy, shaffof va qonuniy iqtisodiy faoliyatni anglatadi. “Oq iqtisodiyot”da barcha iqtisodiy jarayonlar ochiq, soliq to‘lovlari amalga oshiriladi va har qanday moliyaviy operatsiyalar huquqiy me’yorlarga mos ravishda bo‘ladi.

“Aylanuvchi eshiklar” (Revolving doors) – Bu ibora korrupsiya jarayonining tizimli va ko‘plab bosqichlarga tarqalganligini anglatadi. Aylanuvchi eshiklar, ya'ni yuqori mansabdor shaxslar o‘rtasidagi yashirin bitimlar va korrupsiya almashinuvi davlat boshqaruvining ichki tuzilmasini buzadi.

“Olmashligimiz” (We should not take) – Bu ibora korrupsiyaga qarshi turishning huquqiy va axloqiy zarurligini bildiradi.

“Bermashligimiz” (We should not give) – Bu ibora korrupsiyaga qarshi kurashishda qat’iy pozitsiyani ifodalaydi. Agar biz korrupsiyaga “bermashligimiz” kerakligini anglasak, bu ham jamiyatda adolat va tartibni saqlashni, ham huquqiy tizimda shaffoflikni ta’minlashni anglatadi.

Kirish:

Korrupsiya — bu davlat va jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni buzadigan jiddiy huquqiy muammo hisoblanadi. Korrupsiya davlat boshqaruvi va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy to‘sig‘i bo‘lib, uning keng tarqalganligi davlat institutlariga nisbatan ishonchni yo‘qotishga olib keladi. Shu bilan birga, korrupsiya siyosiy jarayonlar va demokratik tizimlarning samaradorligini pasaytiradi, resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga sabab bo‘ladi, iqtisodiy tizimda tengsizlikni kuchaytiradi va ijtimoiy adolatsizlikni yuzaga keltiradi.

Siyosiy taraqqiyotda korrupsiyaning mavjudligi, davlat organlarining samaradorligini kamaytiradi, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini to‘sadi. Bu esa davlat



boshqaruvining legalligi va davlat tizimiga bo'lgan ishonchni jiddiy ravishda susaytiradi. Korruptsiya bilan kurashish — nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro miqyosdagi hamkorlikni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari va siyosiy tizimdagi roli katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada korruptsiyaning siyosiy taraqqiyotga bo'lgan salbiy ta'siri va unga qarshi kurashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Maqola davomida korruptsiya qanday qilib siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi va uning jamiyatdagi barcha sohalarga, ayniqsa davlat boshqaruvi va iqtisodiy tizimga zarar yetkazishi o'rganiladi. Shuningdek, korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda huquqiy chora-tadbirlar va xalqaro hamkorlikning o'rni ham taqdim etiladi. Korruptsiyani bartaraf etishda samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunda har bir davlat uchun dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Korruptsiya bir “virus” kabi har bir inson ongida uya qurib, “soya” kabi bizga har bir burchakdan tikilib turgandek go'yo. Qing'ir ishga bosh qo'sha turib, “bu ohirgisi, endi boshqa qilmayman” deydiganlar “o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymasligini” bilishmasmi?! Korruptsiyani senga beg'araz yordamini ko'rsatmoqchi, aslida esa oyog'ingga bolta urmoq, bundan ham dahshatlisi, yaqinlaring va oila a'zolarining turmushiga zarar yetkazmoqlikni ko'zlagan “soxta do'st”ga qiyoslash mumkin. Pora berib, ishing bitganidan quvonasan, ammo oilang, ya'ni Vataning, davlating qashshoqlashib, parokandalikka uchrayotganini, jabrdiyda xalqing qolib bir poraxo'r va ochko'z mansabdorning qornini to'yg'azayotganingni anglamaysan. Korruptsiyadan ayanchliroq illat yo'qligini u keltirib chiqarayotgan natijalardan ko'rsak:

Ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi vaziyatning tobora murakkablashuvi, turli yangi xavf-xatarlarning vujudga kelishi korruptsiyani yanada jiddiy



global muammoga aylantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olishning yangi va samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Korrupsiyadan, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar jiddiy aziyat chekmoqda va ushbu mamlakatlar har yili korrupsiya natijasida o'rtacha 1.26 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko'rmoqda. Bu pullarga 1,4 milliard qashshoq (kuniga 1,25 AQSh dollaridan kam daromadli odam)larni olti yil davomida moddiy ta'minlash mumkin. Korrupsiya darajasi kam deb e'tirof etiladigan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham korrupsiya natijasida yiliga 132 million AQSh dollari miqdorida zarar ko'rmoqda¹. Transparency International tashkilotining 178 ta mamlakat bo'yicha e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, korrupsiya birinchi galda sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar tizimiga halokatli zarar yetkazadi va natijada har yili 140 mingdan ortiq bolaning o'limi bevosita korrupsiya tufayli kelib chiqadi². Mazkur ko'rsatkichlar korrupsiyaga qarshi kurashish, xususan, korrupsiyaviy omillarning oldini olishga oid muammolarni hal etish bo'yicha alohida kompleks yondashuvlarni talab qilmoqda.

Jahonda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga qarshi murosasiz kurashish, davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni baholash va ularni bartaraf qilish, ijtimoiy ongda korrupsiyaga qarshi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash, korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, davlat, jamiyat va xo'jalik boshqaruvida korrupsiyaviy omillar vujudga kelishini prognoz qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxs – jamiyat – davlat hamda davlatlararo hamkorlikning yangi, samarali va barqaror shakllarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish; kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy

¹ Corruption costs developing countries \$1.26 trillion every year – yet half of EMEA think it's acceptable //

<https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/>

² THE IGNORED PANDEMIC – How corruption in healthcare service delivery threatens Universal Health Coverage //

<https://ti-health.org/wp-content/uploads/2019/03/IgnoredPandemic-WEB-v3.pdf>



asoslarini takomillashtirish; davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish; korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish; korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash; korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarini kuchaytirish; aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish; normativ-huquqiy hujjatlarning "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlashi bo'yicha tegishli choralar amalga oshirilmoqda³.

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiya xavf-xatarlari yuqori bo'lgan, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar eng ko'p sodir etilayotgan sohalarni aniqlash, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish, jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini kuchaytirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son, 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son, 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-781-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.



Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son, 2020yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son, 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son farmonlari, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son, 2021-yil 22-oktyabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5263-son qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Korrupsiya haqida adiblar va faylasuflarning fikrlari:

Abdulla Qodiriyning davlat xizmatlarida tomir yozgan korrupsiya to'g'risida ajoyib gaplari bor: *"O'g'ri ura, molingni oladi-yu jo'naydi. Poraxo'r esa kuppa-kunduz kuni o'z idorasida cho'ntagingga qo'l soladi-yu, biroq jim ketmaydi: jinoyatga seni ham sherik qilib oladi"*⁴.

Buyuk Xitoy faylasufi **Konfutsiy** bu haqida shunday fikr bildirgan: *"Biz o'z na'munamizda munosib xulq-atvor egasi ekanligimizni ko'rsatsak, kim o'zini nomunosib tutishga jazm qilar edi?"*⁵

⁴ Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"

⁵ "Lunyu" (Xitoycha: 论语, "Suvaraklar" yoki "Aforizmalar")



Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borgan Singapur davlat rahbari **Li Kuan Yu** *“Korrupsiyaga qarshi kurashga bel bog‘ladingmi? Unda o‘z yaqinlaring va do‘stlaringni hibsga olishga tayyor tur”*⁶, deya ta’kidlagan. Korrupsiyaga yo‘l boshlovchi eng buyuk omil nima? Albatta, jazosiz qolishga bo‘lgan ishonch. Xulosamiz, jamiyatda barcha oddiy xizmatchidan tortib yuqori mansab egasigacha korrupsion harakati uchun jinoiy jazoga tortilishi muqarrarligini singdirish ham, bu illatni bir qadar kamaytirishga yordam beradi.

Ha, korrupsiya tom ma’noda taraqqiyotning negiziga aylanib ulgurgan. Yo‘q! Mamlakat taraqqiyotining negiziga emas, o‘sha yuragi “jiz” etmay, qo‘li titramay pora olgan, vijdonini shaytonga sotganlar taraqqiyotining negiziga aylandi.

Bundaylar Abdulla Qahhor tilida: *“Kirpini pora deb bersang, bitgan tomog‘ini ochish uchun uni butun yutadiganlardir”*⁷. Nahotki biz kelajak avlodga shundaylarning jamiyatini qoldirib ketamiz? Yo‘q! Korrupsiyaga qarshi kurashni bugunoq, hoziroq boshlaylik. Ildiz otgan bu illatni tomiri bilan sidirib tashlamasak, u bizdan bolalarimizga meros qolib, takror-takror sodir bo‘lib, suyak surib boraveradi. Zero, buyuk ajdodlarimiz ham bizni to‘g‘rilik va halollikka chorlaganlarini unutmaylik:

Dunyoning g‘amin yema, Haqdin o‘zgani dema,

O‘zganing molin yema, sirot uzra tutaro...

(Ahmad Yassaviy)⁸.

Xulosa

Korrupsiyaning taraqqiyotga bo‘lgan salbiy ta’sirini bartaraf etish uchun barcha sohalarida yagona, doimiy va samarasiz kurash olib borilishi zarur. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

⁶ "From Third World to First: The Singapore Story" (2000)

⁷ Abdulla Qahhor *“Halollik, poraxo‘rlilik va tamagirlik haqida”*gi iqtiboslaridan

⁸ Ahmad Yassaviy *“Hikmatlar”* asaridan



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Corruption costs developing countries \$1.26 trillion every year – yet half of EMEA think it's acceptable//
2. <https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/>
3. THE IGNORED PANDEMIC – How corruption in healthcare service delivery threatens Universal Health Coverage //
4. <https://ti-health.org/wp-content/uploads/2019/03/IgnoredPandemic-WEB-v3.pdf>
5. <https://www.transparency.org/>,
6. <http://corruptionresearchnetwork.org/>,
7. <https://www.occrp.org/en>, <https://acc.hse.ru/>,
8. <https://proacademy.uz/>.
9. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" Sharq nashriyoti" (2017)
10. "Lunyu" (Xitoycha: 论语, "Suvaraklar" yoki "Aforizmalar")
11. "From Third World to First: The Singapore Story" (2000)
12. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" Cho'lpon nashriyoti (2017)